

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AKRAMBAYEV XASAN MAMADJANOVICH

**HARBIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNI
MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti misolida)**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctoral of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Akrambayev Xasan Mamadjanovich

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish..... 3

Акрамбаев Хасан Мамаджанович

Совершенствование воспитания слушателей в духе национальной гордости в процессе преподавания военных дисциплин..... 21

Akrambaev Hasan Mamadjanovich

Improving The Education Of Listeners In The Spirit Of National Pride In The Process Of Teaching Military Sciences 40

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AKRAMBAYEV XASAN MAMADJANOVICH

**HARBIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNI
MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti misolida)**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Ped339 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isyanov Ravil Gennadyevich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Guljaxan Yermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Alliyarov Ashraf Dauletiyarovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ kuni _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____kuni tarqatildi.
(2023-yil "___" _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

B.S. Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

Q.B. Panjiev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d., professor v.v.b.

S.S. Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlar, jumladan, harbiylashtirilgan malaka oshirish institutlarida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning integrativ modulli texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Raqamli ta'lim va iqtisodiyot sharoitida o'z xalqi, uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash, haqiqiy vatanparvar insonni shakllantirish va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, malaka oshirish markazlarida ta'lim jarayonlarini xalqaro darajalarga moslashtirish, tinglovchilarda yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni takomillashtirishning ustuvorligini ta'minlash, vatanparvarlikni yuksak darajada tarbiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari, jumladan, malaka oshirish institutlarida tinglovchilarning professional malakalarini rivojlantirish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini, huquqi va barqaror taraqqiyotni har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilish hamda Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha yaxlit normativ-huquqiy baza yaratilmoqda. "... el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqparvar Ichki ishlar tizimini yaratish"¹ hamda "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"² ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, aholi, jumladan, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash, tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-son "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat

¹ Mirziyoev Sh. 2017-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // <https://uznews.uz/uz>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 2022-yil 28-yanvar. PF-60-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

jihtadan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faolliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy iftixor ruhida tarbiyalash o'zbek xalqi tarixida doimo dolzarb bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviyning Vatan haqidagi fikrlari alohida o'rganilgan. Abu Nasr Forobiy komil inson, yetuk jamoa va ularga erishish yo'llari haqidagi g'oyalarni ilgari surgan, Abu Rayhon Beruniy insonni yomon xulqdan yaxshi fazilatlar tomon yetaklash imkoniyati cheksizligini ta'kidlagan. Sh.B.Atajanova, Sh.A.Abdullayeva, A.Aliyarov, O.T.Abduganiyev, S.N.Jo'rayeva, N.Muslimov, Sh.N.Muslimov, S.M.Norbayeva, B.Raximov, Z.T.Saliyeva, K.X.Usmonov, E.T.Kalkonov, R.Yu.Qurbonov, A.D.Redjaboyev, J.Raximov, N.Safayev, D.K.Arapbayeva, O'M.Askarova, I.B.Suvanov, R.I.Oripova, T.X.Qurbonov, A.J.Kamolov, N.Djamilova, N.B.Ismatova, N.X.Voxidova, D.I.Ro'ziyeva, O.A.Abdurasulov, G.X.Ibragimova, B.Sh.Mirzalimov, X.X.Xaydaraliyev, O.Musurmonova, M.S.Xajiyev va boshqalar yoshlarda ma'naviy qadriyatlar, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda madaniy merosning o'рни, fuqarolik kompetensiyalari; A.A.R.Xonimkulov, G.J.Tulenova, Q.B.Qodirov, L.U.Ravshanov, X.M.Tojiboyeva, Z.Sh.Alimardonov kabi olimlar harbiylarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ijtimoiy faoliyati samaradorligini oshirish, harbiy kadrlar tayyorlashning g'oyaviy jihatlari, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari T.Burlakova, A.S.Verguz, M.A.Eshev, N.A.Gushshina, A.V.Grigoriyev, A.A.Kalekin, P.V.Klimenko, X.T.Kayumova, A.V.Karipov, K.N.Menlibayev, Ye.I.Mozgovaya, J.Yu.Maloskaya, E.Metgin A.Yu.Parashin, I.V.Proshek, V.A.Pekshin, N.B.Polkovnikova, V.A.Ruja, V.V.Sulimin, X.Tillayev, G.A.Tixomirov, Ye.R.Turskaya, V.M.Xuastov, N.A.Ivashkina, O.Y.Shafranova va boshqalar yoshlarning emotsional intellekti, kompetensiyalarini rivojlantirish, aksiologik, individual yondashuv asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etgan.

Xorijiy davlatlarda N.Pels, E.Tonkiss, A.Pavkovis, M.Figueroa, A.Lassetter, D.Monger, M.Sifuma, W.Zbidniyew, A.Spahiu, B.Mary, A.Masintyre, Y.Feinstein, M.Kyzlinkova, G.Boiymer, Masintyre va boshqalar milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020-yy.).

Tadqiqotning maqsadi harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha pedagogik jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash modelini takomillashtirish;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinovda Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish instituti Boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik, Maxsus kasbiy tayyorgarlik yo'nalishlarining 400 nafar tinglovchisi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy, ilmiy-metodik adabiyotlar, normativ hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish; qiyoslash-taqoslash, tarixiy va xorijiy tajribalarni qiyosiy va retrospektiv tahlil qilish, anketa, diagnostik test, so'rovnoma, pedagogik kuzatish, baholash, umumlashtirish, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, nitijalarni matematik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash imkoniyatlari reflektiv-kognitiv, shaxsiy-kasbiy, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ilg'or texnologiyalar bilan o'zini o'zi rivojlantirishning ta'sirchanligini ta'lim mazmuniga ko'ra intensiv yaxlitlash asosida aniqlangan;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash jarayoni kommunikativlik darajasini oshirishga qaratilgan yangi axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish hamda milliy va umummadaniy tayanch harbiy bilimlarning me'yoriy-tizimli infratuzilmasini innovatsion ta'lim muhitiga ratsional moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash modeli kasbga oid tarbiyaviy loyihalarni diagnostik modellashtirish va o'quv-harbiy mashg'ulotlarni ta'limiy maqsadlariga ko'ra didaktik loyihalash asosida takomillashtirilgan;

tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni baholash samaradorligi harbiy intizom, ma'naviy tarbiyalanganlik, ideallarga mos yo'nalganlik, iftixor tuyg'usini muntazam ravishda oshirib borish hamda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik sifatlarini kompleks yaxlitlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion harbiy ta'lim mashg'ulotlari majmui ishlab chiqilgan;

tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash jaryonlari, harbiy fanlar o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualari, o'quv jarayonini tashkil etish modullari takomillashtirilgan;

tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublikamiz va chet ellik olimlarning harbiy ta'lim sohasidagi ishlari va boshqa ishonchli manbalarga tayanilgani, qo'llangan yondashuv va metodlar, nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, tadqiqot vazifalariga mos keladigan va o'zaro bir-birini to'ldiradigan tadqiqot metodlari qo'llangani, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslangani, xulosa va takliflar amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogika fani mazmuni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgani; milliy iftixor ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-siyosiy hamda harbiy bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni rivojlantirishning innovatsion-interaktiv ta'lim texnologiyalari, mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalari, baholash mezonlari takomillashtirilgani, daraja ko'rsatkichlari ishlab chiqilgani, ijtimoiy-ma'naviy va milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning strategik maqsadlari yoritilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning harbiy-pedagogik xususiyatlari, faollik qobiliyatini rivojlantirish, o'zini o'zi boshqarishdagi faollikni rivojlantirishning ta'limiy imkoniyatlari va ularni ta'lim tizimiga tatbiq etishga doir taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, Ichki ishlar vazirligi tizimi ta'lim muassasalarida ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini reflektiv-kognitiv, shaxsiy-kasbiy, ijtimoiy-madaniy

kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ilg'or texnologiyalar bilan o'zini o'zi rivojlantirishning ta'sirchanligini ta'lim mazmuniga ko'ra intensiv yaxlitlash asosida aniqlashga oid tavsiyalardan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2061/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, ichki ishlar organlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning kasbiy bilimlari darajasini oshirish uchun sharoit yaratilgan;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash jarayonini kommunikativlik darajasini oshirishga qaratilgan yangi axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish hamda milliy va umummadaniy tayanch harbiy bilimlarning me'yoriy-tizimli infratuzilmasini innovatsion ta'lim muhitiga ratsional moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflardan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2061/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, ichki ishlar organlari xodimlariga xizmatdan ajralmagan holda kasbiy bilimlar berish imkoniyatlari kengaytirilgan;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash modelini kasbga oid tarbiyaviy loyihalarni diagnostik modellashtirish va o'quv-harbiy mashg'ulotlarni ta'limiy maqsadlariga ko'ra didaktik loyihalash asosida takomillashtirishga oid takliflardan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2061/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, ichki ishlar organlari xodimlariga xizmatdan ajralmagan holda kasbiy bilimlar berish, ularning ekstremal vaziyatlarda maxsus taktik tayyorgarligini oshirish orqali milliy iftixorini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni baholash samaradorligini harbiy intizom, ma'naviy tarbiyalanganlik, ideallarga yo'nalganlik, iftixor tuyg'usini muntazam ravishda oshirib borish hamda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik sifatlarini kompleks yaxlitlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2061/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, yoshlarning malaka oshirish institutiga o'qishga kirish, ichki ishlar organi xodimi bo'lishdan g'urur hissini shakllantirish va milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 3 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etishni tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, tavsiya, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 131 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish ijtimoiy pedagogik zarurat sifatida asoslangan, harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari, tinglovchilar ongiga milliy iftixor g'oyalarini singdirishning pedagogik-tarbiyaviy jihatlari yoritilgan.

Dunyoda globallashtirish jarayonlari kechayotgan, ommaviy noroziliklar, ekstremizm xavfi ortayotgan, ichki nizolar kuchayib borayotgan, mintaqalarda qurolli mojarolar davom etayotgan bugungi kunda mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, paydo bo'layotgan jamiyatga tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga doimo tayyor bo'lish, xushyorlikni oshirishni davrning o'zi talab etmoqda.

A.Ibroximov, X.Sultanov, N.Jo'rayev, A.J.Kamolov kabi tadqiqotchilar tomonidan ma'naviyati izdan chiqqan mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, loqaydlik avj olishi, xalqning milliy o'zligi, g'urur-iftixori, milliy qadriyatlari asta-sekin zaiflasha borishi, oqibatda, bunday mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va “silliq” kechishi, mafkura poligonlarida g'oyaviy-mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya etishga qulay zamin yaratishi asoslangan.

Ma'lumki, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilish, aholining tinchligi va osoyishtaligini saqlash ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan. Demak, bugungi kunda mamlakatimiz ichki ishlar organlari xodimlarining professional bilim va malaka, aqliy salohiyat, ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda

vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish hamda milliy iftixor tuyg'ularini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada oxirgi yillari Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida tinglovchilarning yangilanish davrida ong-u tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning foliyatiga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanishi tasdiqlangan.

Ilmiy izlanishlar, harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish to'g'risidagi ilmiy manbalar tahlili natijasida:

tinglovchilarning huquq va majburiyatlari, qadriyatlari, harbiy-pedagogik jarayonni har tomonlama o'rganish va "yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", uzluksiz o'quv-karyera jarayoni tizimida harbiy fanlari orqali milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari aksiologik yondashuv asosidagi faoliyat mazmuni belgilandi;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga oid ilmiy ishlarda milliy g'ururning oqibatlarini empirik o'rganish orqali pedagogik asoslarida to'xtalib, milliy iftixor barqarorligini oshirish uni rivojlantirish omili sifatida qayd etildi;

harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishda harbiy-pedagogik jarayonda professor-o'qituvchilar faolligi harbiy ta'limning yetakshi tamoyillaridan biri, o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida maqbul muhitni yaratish, tinglovchining qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari va tajribasi, bilim va malakalarini individual yondashuv asosida rivojlantirish va yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega, o'z burchiga sodiq vatanparvar va xalqparvar hodimni tarbiyalash omillari sifatida belgilandi;

bugungi kunda harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishda interfaol ta'lim va uning didaktik imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning normalari va tartib-qoidalariga amal qilish ustuvorligi, olgan harbiy bilimlarini amaliy faoliyatda va keng doiradagi hayotiy vazifalarni hal qilishda qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari yoritildi.

Dissertatsiyada harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish tinglovchilarning o'z majburiyatlarini mas'uliyatli va samarali amalga oshirish, o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llashga imkon beruvchi qobiliyatlar majmui deb ta'riflangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari**" deb nomlangan bo'lib, unda harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish mexanizmlarini tatbiq etish orqali tinglovchilarda milliy iftixorni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, eng ilg'or innovatsion yondashuvlarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy

etish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish masalalari yoritilgan.


Tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash mexanizmini tatbiq etish yo'llari, ularning ruhiy holatining o'ziga xosligi haqidagi bilimlarga tayanish, o'z xizmat vazifalarini bajarishga harbiy-psixologik tayyorgarligi bo'yicha amaliy tavsiyalarni yanada takomillashtirish talab qilinadi. Bunda interfaol o'qitish alohida ahamiyatga ega, unda ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'qituvchi, tinglovchilar va guruhlar o'rtasida hamkorlik, bahs-munozalar, fikr almashish imkoniyatlari kengaytiriladi, ularda erkin fikrlash, o'z qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlar yechimlarini birgalikda aniqlash va bartaraf etish, o'qituvchi va tinglovchilarning o'zaro yaqinliklari yuzaga keladi.

Tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash mexanizmini yaratishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasiga to'xtalib, harbiy fanlarni o'qitish jarayonida "bumerang", "keys-stady", "skarabey" va "ko'rgazma" kabi pedagogik texnologiyalar hamda "aqliy hujum", "bahs-munozara", "videotopishmoq", "blits-so'rov", "yagona davra", "zukko", "Menga so'z bering", savol-javob interfaol metodlaridan foydalanish taklif etilgan.

Tadqiqot ishida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlash, muloqot va jangovar shaylik ko'nikmalarini shakllantirish, zarur deb bildik. Bu jarayonda har bir tinglovchi o'zining qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha mustaqil izlanish orqali o'qitildi. Tadqiqot ishida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol ta'lim metodlarini qo'llash, tinglovchilarning egallaayotgan harbiy bilim, ko'nikma va malakalari oshib borishi, ular tomonidan mustaqil ta'lim orqali o'rganib, mantiqiy tahlil, qilish, xatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishiga e'tibor qaratilishi katta ahamiyatga ega bo'lishi aniqlangan.

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish modelining amaliy qimmatini, asosan, uning obyektning o'rganilayotgan tomonlariga adekvatligi, shuningdek, modelni qurish bosqichlarida modellashtirishning asosiy prinsiplari (ko'rgazmalilik, aniqlik, obyektivlik) inobatga olingani bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida o'qitish, tarbiya, ta'lim mazmuni, o'quv faoliyati va boshqalar modellashtirildi. Tinglovchilar harbiy fanlarni o'qitish jarayonida o'rganayotgan turli voqea-hodisalarning modellarini ishlab chiqishda modellashtirish o'quv vositasi, o'quv materialini umumlashtirish hamda uni ixcham ko'rinishda ifodalash usuli sifatida xizmat qildi. Bundan tashqari, o'quv jarayonida materiallarni mantiqiy tartibga solish, semantik sxemalarni qurish, o'quv jarayonida axborotlarni ko'rgazmali ifodalash uchun modellashtirish keng qo'llandi.

Tadqiqot ishida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlash va muloqot hamda jangovar shaylik ko'nikmalarini shakllantirish, zarur deb bildik. Bu jarayonda har bir tinglovchi o'z qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha mustaqil izlanish orqali o'qitildi.



1-rasm. Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish modeli

Tadqiqot ishida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol ta'lim metodlarini qo'llash, tinglovchilarning

egallayotgan harbiy bilim, ko'nikma va malakalari oshib borishi, ular tomonidan mustaqil ta'lim orqali o'rganib, mantiqiy tahlil, qilish, xatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishiga qaratilishi katta ahamiyatga ega bo'lishi aniqlangan.

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida ijtimoiy ta'limiy modellar ta'lim jarayoni tinglovchilarining jamoaviy o'qish, o'rganish harakatlari, milliy iftixor ruhida tarbiyalash vazifalari pedagogik amaliyotda asoslash orqali aniqlashtirilgan model qo'llandi, unda ijtimoiy ehtiyoj, maqsad, jarayon, metodologik yondashuvlar, milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish asoslari, baholash mezonlari va natijalari o' ifodasini topdi.

Tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash mexanizmini yaratishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasiga to'xtalib, harbiy fanlarni o'qitish jarayonida "bumerang", "keys-stady", "skarabey" va "ko'rgazma" kabi pedagogik texnologiyalar hamda "aqliy hujum", "bahs-munozara", "video-topishmoq", "blits-so'rov", "yagona davra", "zukko", "Menga so'z bering", savol-javob interfaol metodlaridan foydalanish taklif etilgan.

Dissertatsiyada harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash modellari pedagogik (diagnostik, maqsadli, mazmunli, jarayonli va tahliliy) shart-sharoitlarni rivojlantirish ko'rinishida, statistika orqali uchta daraja mezonining zaruriy (ijtimoiy yo'nalish darajasi), optimal (ishonch darajasi) va maksimal (ijtimoiy xatti-harakat darajasi) tavsifidan iborat bo'lgan darajali sifatlari aniqlangan hamda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari belgilangan.

Ishning uchinchi bobi **"Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari"** deb nomlanib, unda pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish metodikasi, olingan natijalar tahlili bayon qilingan. Tajriba-sinov ishlarining samaradorligi asoslangan.

Olib borilgan tahlil va jarayon modelini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy izlanishlar doirasida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov 2019-2022-yillarda Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining boshlang'ish kasbiy tayyorgarlik va maxsus kasbiy tayyorgarlik yig'inlari tinglovchilari respondent sifatida jalb etilgan holda tashkil etildi. Tajriba-sinov ishi innovatsion texnologiya, turli takomillashtirilgan metod, shakl va vositalarni qo'llagan holda tashkillashtirildi.

Olib borilgan tadqiqot ishi yuzasidan tajriba-sinov ishlari uchta: izlanuvchi-ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichda tashkil etildi.

Tadqiqot olib borilgan davrda amalga oshirilgan muhim ishlardan biri tajriba-sinov ishlariga respondentlarni jalb qilish va ulardan tajriba hamda nazorat guruhlarini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Tajriba-sinov ishida 2019/2020-o'quv yilida 135 nafar, 2020/2021-o'quv yilida 133 nafar, 2021/2022-o'quv yili mobaynida 132 nafar, jami 400 nafar tinglovchi ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishiga jalb etilgan jami respondent-tinglovchilar tasodifiy tanlov tamoyiliga rioya etgan holda tajriba (214 nafar tinglovchi) va nazorat (186

nafar tinglovchi) guruhlariga biriktirildi.

Tajriba-sinov uchun taqdim etilgan konsepsiya quyidagi pedagogik metodlar asosida shakllantirildi:

respondent-tinglovchilar uchun mo'ljallab, tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarining mavjud darajasini rivojlantirishga yo'naltirilgan so'rovnoma ishlab chiqildi. Tajriba-sinov davrida jarayonini imkon qadar xolis baholash va tahlil etish maqsadida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha ochiq so'rovnomalardan foydalanildi.

Milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishning pedagogik texnologiyalari, innovatsion, interfaol metodlardan foydalanildi. Ta'lim tajribasi anketa so'rovlarini suhbat, savol-javob hamda interfaol metodlar bilan birga qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqladi. Ma'lumki, malaka oshirish instituti tinglovchilari o'zlikni anglash hamda milliy iftixor tuyg'ularini to'laqonli egallamagan, tajriba-sinov, so'rovnoma o'tkazishda bu holat inobatga olindi.

So'rovnoma 9 ta savoldan iborat bo'lib, respondent tinglovchilarning javoblarini quyidagi tartibda baholash belgilandi:

5 ball – so'rovnoma savollarining barchasiga aniq, to'g'ri javoblar uchun; 4 ball – so'rovnomaning aksariyat savollariga asosli javoblar uchun; 3 ball – so'rovnomadagi savollarda fikr-mulohazalarni o'z ichiga olgan va asoslanmagan javoblar uchun.

Bunda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlarning suhbat, savol-javob va topshiriqlarni bajarish bo'yicha to'plangan ballari umumlashtirilib, harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirish ko'rsatkichlari quyidagi qiymatlari belgilandi: yuqori (maksimal) darajasi – 5 ball; o'rta (optimal) darajasi – 4 ball; quyi (zaruriy) darajasi – 3 ball.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda respondent tinglovchilarni baholash mezonini asosida respondent tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo'yicha baholash kvalimetrik jihatdan to'g'ri deb topildi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari "reproduktiv (past)", "produktiv (o'rta)", "kreativ (yuqori)" baholash mezonlari – darajalar bo'yicha baholandi.

Tajriba-sinov natijalarini statistik tahlil tajriba boshida (2019/2020-o'quv yili), tajribaning ikkinchi yili (2020/2021-o'quv yili) va tajriba oxirida (2021/2022-o'quv yili) quyidagi tinglovchilar kontingenti bilan olib borildi (1-jadval).

1-javal

O'quv yillari bo'yicha respondent-tinglovchilar soni

O'quv yillari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
2019-2020 o'quv yili	72	63	135
2020-2021 o'quv yili	72	61	133
2021-2022 o'quv yili	70	62	132
Jami	214	186	400

Har bir o'quv yilida respondent-tinglovchilarning anketa savollari asosida harbiy fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan mezonlar asosida natijalar olindi.

